

Sergeli tumanidagi “O‘zgarish” mahallasida navbatdagi “Mahallada duv-duv gap” tadbiri



Avval xabar berganimizdek, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti tomonidan 2021- yilning noyabr-dekabr oylarida “Mahallada duv-duv gap” loyihasi asosida poytaxtning qator mahallarida madaniy-ma‘rifiy tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha reja ishlab chiqilgan.



Unga asosan, poytaxtimizning Sergeli tumanidagi "O'zgarish" mahallasida navbatdagi tadbir tashkil etildi. Mazkur kechaning mehmonlari ushbu hududda istiqomat qiladigan aholi, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, uyushmagan yoshlar, ehtiyojmand ayollar, keksa va nuroniylar bo'lishdi.





Madaniy-ma'rifiy tadbirda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev, O'zbekiston xalq artistlari Erkin Komilov, Tesha Mo'minov singari respublikamizning taniqli aktyorlari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, O'zbekiston xalq hofizi singari elimiz sevgan mashhur san'atkorlar ishtirok etishdi va ularning chiqishlari aholining gulduros qarsaklari ostida kutib olindi. Mahalla ahli e'tiboriga institutimizning professor-o'qituvchilari, talabalari tomonidan tayyorlangan kengaytirilgan konsert dasturi taqdim etildi.





Milliy qo'shiqlar, mumtoz ashulalar, diltortar navolar kechaga yanada fayz, xursandchilik bag'ishlab, barchani davraga chorladi.



Tadbir ishtirokchilari o'zlarining sho'x raqslari, gulduros qarsaklari bilan san'atkorlarni ruhlantirib turdi. Kishilarning qalbiga xursandchilik, xush kayfiyat ulashuvchi "Mahallada duv-duv gap" loyihasi dorasidagi shu kabi madaniy-ma'rifiy tadbirlar poytaxtimiz mahallalari bo'ylab davom etadi.

Matbuot kotibi